



Xorazm viloyatida

kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020– yil yanvar – sentabr



2020– yilning yanvar–sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagи ulushi **73,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **12,1** birlikni tashkil qildi.

2020– yilning yanvar–sentabrida **3,7** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **93,9 %** ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 1078 ta, sanoatda 789 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 954 ta, qurilishda 232 ta, yashash va ovqatlanishda 173 ta, tashish va saqlashda 70 ta tashkil etilgan.

2020– yil yanvar – sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Yanvar – sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019 – y.	2020 – y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	14858	17833	2975
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	3944	3704	- 240
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	74,3	73,6	-0,7
Sanoat	%	31,6	26,4	-5,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	99,7	99,7	0,0
Investitsiya	%	68,5	72,9	11,2
Qurilish	%	93,4	91,8	-1,6
Savdo	%	79,8	82,7	2,9
Xizmatlar	%	59,3	64,3	5,0
Yuk tashish	%	94,0	94,2	0,2
Yuk aylanmasi	%	89,9	77,3	-12,6
Yo'lovchi tashish	%	94,2	96,8	2,6
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,3	97,9	1,6
Eksport	%	91,5	69,0	-22,5
Import	%	91,2	72,5	-18,7



2020– yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020– yilning yanvar – sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'pi Urganch shahrida – 583 ta, Qo'shko'pir tumanida – 371 ta, Gurlan tumanida – 299 ta, Urganch tumanida – 343 ta, Yangibozor tumanida – 320 ta va Xiva shahrida – 296 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Tuproqqa'l tumani – 94 tani tashkil etgan.

Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019– yil yanvar – sentabr	2020– yil yanvar – sentabr	(+;-)
Xorazm viloyati	3944	3704	-240
<i>shaharlar:</i>			
Urganch	752	583	-169
Xiva	362	296	- 66
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	215	273	58
Gurlan	305	299	-6
Qo'shko'pir	262	371	109
Urganch	530	343	-187
Hazorasp	314	170	-144
Tuproqqal'a	-	94	94
Xonqa	300	270	-30
Xiva	250	261	11
Shovot	249	211	-38
Yangiariq	208	213	5
Yangibozor	197	320	123



**2020– yil yanvar – sentabr holatiga ko'rta yangi
tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning
tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**




2020- yilning yanvar - sentabr oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Urganch shahri - 15,7 %, Qo'shko'pir tumani - 10,0 %, Urganch tumani - 9,3 %, Yangibozor tumani - 8,6 %, Gurlan tumani - 8,1 %, Xiva shahri - 8,0 %, Bog'ot tumani - 7,4 %, Xonqa tumani - 7,3 %, Xiva tumani - 7,0 % ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar- sentabr	2020- yil yanvar- sentabr	(+;-)
Jami	3944	3704	-240
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	524	954	430
Sanoat	820	789	-31
Qurilish	309	232	-77
Savdo	1427	1078	-349
Tashish va saqlash	112	70	-42
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	334	173	-161
Axborot va aloqa	45	62	17
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	68	77	9
Boshqa faoliyat turlari	305	269	-36

Ma'lumot uchun: 2020– yilning yanvar – sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi (+;-)
Urganch sh.	752	583	-169
Qo'shko'pir tumani	262	371	109
Urganch tumani	530	343	-187
Yangibozor tumani	197	320	123
Gurlan tumani	305	299	-6
Xiva sh.	362	296	-66
Bog'ot tumani	215	273	58
Xonqa tumani	300	270	-30
Xiva tumani	250	261	11
Yangiariq tumani	208	213	5

2020– yilning yanvar – sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida – 583 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - sentabr holatiga ko'ra*



2020– yilning yanvar–sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Urganch shahrida 27,2 birlik, Xiva shahrida 17,9 birlik, Yangibozor tumanida 14,4 birlik. Urganch tumanida 13,8 birlik, Yangiariq tumanida 13,4 birlik, Tuproqqa'l'a va Xiva tumanida 12,2 birlikni tashkil etgan. Hazorasp tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 6,5 birlikka to'gri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020– yilning yanvar – sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020– yilning yanvar – sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirdorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



2020– yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirdorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Urganch shahrida 27,2 birlik, Xiva shahrida 17,9 birlik, Yangibozor tumanida 14,4 birlik, Urganch tumanida 13,8 birlik, Yangiariq tumanida 13,4 birlik, Tuproqqa'l'a va Xiva tumanida esa 12,2 birlikni tashkil etdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




- **Eng yuqori ko'rsatkich**
Urganch shahri - **27,2** birlik;
- **O'rtacha ko'rsatkich**
Tuproqqa'l'a tumani - **12,2** birlik;
- **Eng past ko'rsatkich**
Hazorasp tumani - **6,5** birlik;

Bundan ko'rinish turibdiki, Urganch shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Hazorasp tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar - sentabr holatiga ko'ra, % da


2020- yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 73,6 % ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar – sentabrida 74,3 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.





Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2020– yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Xorazm viloyati	26,4	91,8	64,3	72,9
<i>shaharlar:</i>				
Urganch	35,7	86,3	33,0	44,4
Xiva	100,0	100,0	98,8	69,8
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	71,4	93,4	96,4	88,8
Gurlan	62,7	96,7	98,4	76,3
Qo'shko'pir	49,0	94,5	97,8	82,4
Urganch	75,9	95,9	88,5	79,3
Hazorasp	41,8	98,9	93,6	68,9
Tuproqqa'l'a	2,7	100,0	98,2	77,0
Xonqa	35,7	66,9	93,8	93,7
Xiva	100,0	95,7	97,0	74,3
Shovot	30,8	100,0	96,4	70,7
Yangiariq	35,3	98,3	97,8	91,0
Yangibozor	25,6	97,1	98,7	85,3

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Xiva sh. (100,0 %),
Xiva (100,0 %),
Urganch (75,9 %),
Bog'ot (71,4 %),
Gurlan (62,7 %) va
Qo'shko'pir (49,0 %)
tumanlarida.

Qurilishda-

Xiva sh. (100,0 %),
Tuproqqa'l'a (100,0 %),
Shovot (100,0 %),
Hazorasp (98,9 %),
Yangiariq (98,3 %) va
Yangibozor (97,1 %)
tumanlarida.

Xizmatlarda-

Xiva sh. (98,8 %),
Yangibozor (98,7 %),
Gurlan (98,4 %),
Tuproqqa'l'a (98,2 %),
Qo'shko'pir (97,8 %) va
Yangiariq (97,8 %)
tumanlarida.




Kichik tadbirkorlik sub'yektlar tomonidan 2020 - yilning yanvar - sentabrida

- I  Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1759,1 mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 26,4 %) ni tashkil qildi;
- II  3616,7 mlrd.so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 72,9 %) o'zlashtirildi va 2019-yilning yanvar- sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 119,8 % ni tashkil qildi;
- III  2040,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 87,4 %) bajarildi va 2019-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 95,6 % ni tashkil qildi;
- IV  3029,1 mlrd.so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 64,3 %) 2019-yilning yanvar- sentabriga nisbatan 110,9 % ni tashkil qildi;
- V  Chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 82,7 % yoki 4849,9 mlrd.so'mi (95,1 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- VI  89,6 mln.AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 69,0 %) miqdorida mahsulotlar (ish va xizmatlar) eksport qilindi;
- VII  Avtomobil transport yuk aylanmasi 77,3 % ni (viloyat jami avtomobil transport yuk aylanmasining 97,5 %) tashkil qildi;
- VIII  Yo'lovchi aylanmasi 97,9 % ni (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 93,4 %) tashkil qildi;




Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Bog'ot tumanida – 100,0%, Xiva tumanida – 100,0 %, Yangiariq tumanida – 100,0 %, Tuproqql'a tumanida – 100,0 %, Qo'shko'pir tumanida – 100,0 %, Xiva shahrida – 99,0 %, Gurlan tumanida – 98,5 %, Urganch tumanida – 88,3 % ni, eng past ko'rsatkich Urganch shahrida – 37,3 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdag'i ulushi, % da



2020– yil yanvar – sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Gurlan tumanida – 100,0 %, Xiva shahrida – 100,0 %, Xiva tumanida – 100,0 %, Bog'ot tumanida – 100,0 %, Qo'shko'pir tumanida – 99,4 %, Hazorasp tumanida – 96,0 %. Eng past ko'rsatkich Tuproqqal'a tumanida - 17,4 % ni tashkil etdi.



2020– yilning yanvar – sentabrida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi





Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (442,2 mlrd. so'm), Urganch (218,0 mlrd. so'm), Xiva (167,8 mlrd. so'm), Gurlan (158,9 mlrd. so'm) va Bog'ot (154,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yangibozor tumanida (48,3 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020– yil yanvar – sentabr holatiga ko’ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xiva tumani (100,0%), Xiva shahri (100,0%), Urganch tumani (75,9%), Bog’ot tumani (71,4%), Gurlan tumani (62,7%), Qo’shko’pir tumani (49,0%), Hazorasp tumani (41,8%), Xonqa tumani (35,7%), Urganch shahri (35,7%), va Yangiariq (35,3%), tumanlari tashkil etdi. Tuproqqa'l'a tumanida (2,7%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020– yilning yanvar – sentabrida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri - 1271,8 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 95,0%), Hazorasp tumani - 558,3 mlrd. so'm (100,4%), Urganch tumani - 496,8 mlrd.so'm (103,4%) va Gurlan tumani - 421,8 mlrd. so'm (103,4%) hissasiga to'g'ri keladi.



2020– yilning yanvar – sentabrida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri 487,9 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 87,4%), Xiva tumani 172,6 mlrd. so'm (110,3%), Urganch tumani 171,4 mlrd. so'm (92,4%), Yangibozor tumani 150,3 mlrd. so'm (106,7%) , Xiva shahrida 149,0 mlrd. so'm (61,3%) hamda Yangiariq tumanida 143,3 mlrd. so'm (116,6%) qayd etildi.





2020– yilning yanvar – sentabrida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o’sish sur’ati




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko’p xizmatlar hajmi Urganch shahri - 778,7 mldr. so’m (2019 yilning yanvar – sentabriga nisbatan o’sish sur’ati 102,3%), Urganch tumani 294,1 mldr. so’m (109,8%), Hazorasp tumani 217,4 mldr. so’m (111,2%), Xonqa tumani 216,2 mldr. so’m (121,9%) hissasiga to’g’ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020– yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **774** ta respondentlar ishtirok etdi.

2020– yil III – chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 7,9 % (61 ta.), sanoatda – 15,4 % (119 ta), qurilishda – 9,7% (75 ta), savdoda – 36,3% (281 ta), xizmatlar sohasida – 30,7 % (238 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lган kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



**2020– yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi
bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




**2020- yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020– yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat qurilish korxonalarida 11,5 punktga, xizmatlar sohasida 3,0 punktga, sanoat korxonalarida 3,2 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalar 11,3 punktga, savdoda 0,8 punktga oshdi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda savdoda 0,2 punktga, qurilish korxonalarida 0,9 punktga, sanoat sohasida 0,8 punktga, xizmatlar sohasida 3,7 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020– yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda , xizmatlar sohasi 5,1 punktga, qurilish korxonalari 6,1 punktga, sanoat korxonalari 2,8 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari 1,0 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi ximatlar sohasida 2,3 punktga, savdoda 0,8 punktga, qurilishda 2,6 punktga oshdi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 – 2020– yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi,% da






2020– yilning III choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 94 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 19 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 20,2%), qurilish – 6 ta (6,4%), savdo – 30 ta (31,9%) va xizmatlar – 17 ta (18,1%), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 22 ta (23,4%).

2020– yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020– yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020– yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasida 7,6 punktga, sanoat sohasida 2,7 punktga, savdoda 3,0 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari 1,9 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.




2019 – 2020– yillar III chorakdagagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020– yilning III choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi savdoda 1,5 punktga, qurilishda 16,7 punktga kamaydi, xizmatlar sohasida 12,0 punktga, sanoat sohasida 9,9 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida esa 11,1 punktga oshdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar xizmatlar sohasida 5,9 punktga kamayishi kuzatildi.



2019 – 2020– yil III choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,% da

